

## ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN-QIZLAR BILAN IJTIMOIY ISH OLIB BORISH

**ANOTATSIYA:** Maqolada zoravonlikka uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish, individual reabilitatsiya dasturi bosqichlari, ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya dasturlari, ijtimoiy reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari hamda turli sohalarda reabilitatsiya tushunchasining mazmun va mohiyati tahlil qilingan. Zoravonlikka duchor bo‘lgan shaxslar bilan ishlashda zorovonlikka va travmadan keyingi stress uchun shoshilinch yordam, shuningdek, individual maslahat va guruh ishlari jarayonida uzoq muddatli yordam ko‘rsatishning ahamiyati izohlangan. Maqolada xotin-qizlar bilan ishlash tizimiga kiritilgan o‘zgartirishlar va yangiliklar, olib borilayotgan isloxoqlar haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Zo‘ravonlik, reabilitatsiya, ijtimoiy hodim, ijtimoiy ish, ijtimoiy-psixologik, psixologik-pedagogik, huquqiy, tibbiy reabilitatsiya, artterapiya, qum terapiya, ekspert baholash, xotin-qizlar, oila, xotin-qizlar tadbirkorligi, og’ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar, “Ayollar daftari” o‘zbekona urf-odat va an’analar.

Mustaqillikning ilk yillardan qabul qilingan barcha qonunlarda ayollar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e’tirof etildi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarda bozor iqtisodiyotiga o‘tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda ushbu tizimning yangidan shakllantirishga kirishilganini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kun ayoli nafaqat oilada uy bekasi, tarbiyachi vazifasini bajaradi, u jamiyatdagi barcha sohalarda ijtimoiy faol inson sifatida ham tashabbus va g‘ayrat bilan ishtirok etmoqda.{1} Ayol o‘zining ma’naviy qiyofasi, ichki dunyosi, muomala madaniyati, o‘z kasbining fidoyisi, ezgu fazilatlar egasi bo‘lishi bilan nafaqat farzandlari, balki kasbdoshlari va shogirdlariga ham ibrat bo‘la oladi. 2022-yil 25-iyunda xalq muhokamasiga qo‘ylgan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi e’lon qilindi. Ushbu loyihada Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g‘amxo‘rlik davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan. va ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekiston –ijtimoiy davlat sifatida e’tirof etilgan insonga e’tibor hamda g‘amxo‘rlik-davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekanligini mustahkamlanmoqda.{2}

Yurtimizda bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yil 2-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining —Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida{3}, 2019-yil 2-sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi qonunlarning imzolanishi bu muammolarning naqadar jiddiy ekanligini isbotladi. Unda oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib, jamiyatda oilaviy-maishiy tusdagagi zo‘rlik

ishlatishning har qanday ko‘rinishiga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlash belgilandi.{3}

Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o‘qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar: “Bitta qiz bolani o‘qitsangiz-butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, deb beziz ta’kidlamaganlar. Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo‘lib, jamiyatda hamda o‘z oilasida munosib o‘rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundankeyin ham izchil davom ettiramiz – deb ta’kidladilar.{4}

Bu borada, avvalo, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini qabul qilinishi va ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlarini tashkil etilishi, barcha talaba qizlarga ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinishi xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ohib beradi.

Oila, xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishslashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va o‘zaro hamkorligini ta’minlash, xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g’ri yo‘naltirish, gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog’lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash, og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiyhuquqiy, psixologik yordam ko‘rsatish, ularni «Ayollar daftari» orqali manzilli qo‘llabquvvatlash, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarninghuquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish Farmonning ustivor maqsadidir.{6}

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishchonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi» 829-sonli Qonuni

qabul qilindi.Ushbu Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o‘z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo‘llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo‘yuvchi o‘zgartishlar kiritilmoqda.{7} Ushbu Qonun xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo‘ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog‘liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi.{3}

T.Narbayevaning so‘zlariga ko‘ra —Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan zoravonlik qilishning oldini olish—eng muhim va dolzarb muammolardan biri bolib hisoblanadi. Zoravonlik ularning ruhiy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy salomatligiga zarar yetkazibgina qolmaydi, balki uni ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan shaxs sifatida jiddiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib keladi. Zoravonlikka uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish dasturlarini tahlil qilishni boshlashdan avval ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya va turli sohalarda reabilitatsiya qanday tushuncha ekanligini bilishimiz kerak. Shundagina biz oz izlanishlarimizda suyanadigan fenomenni tanlab olamiz.Reabilitatsiyani tibbiy-pedagogik va psixologik-pedagogik uslublarining ma'lum tizimi deb hisoblasak, uning natijasida bola rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklarga, ijtimoiy muhitga, jamiyatga moslashishga, tengdoshlari bilan muloqot qilishga, mehnat qilishga, ijtimoiy xayotga ozining psixologik, jismoniy layoqatlari doirasida konika oladi va shu orqali ozidagi kamchiliklarni yengib, ornatilgan normaga mos bola boshlaydi. Reabilitatsiya tushunchasiga berilgan JSST tomonidan qabul qilingan ta'rifni olsak, bu shunday tizimki, qaysiki unda sub'ektning (shaxsning) mehnatga layoqatini topishiga qaratilgan bir necha tadbirlar jamlanganligini koramiz.{3}

**Xulosa:**Mening xulosam shuki oilaviy zoravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish natijasida ayolning qay darajada mustaqil hayot kechirishi, tajovuzkordan alohida yashashi, farzandlar tarbiyalashi mumkinligi aniqlanadi. Ideal holda, ayol tajovuzkor bilan aloqani butunlay uzadi, o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantiradi va undan xalos bo‘ladi. Ayol o‘z huquqlarini tiklaydi, yana hujjatlarga, ish, uy-joyga ega bo‘ladi, mustaqil yashaydi, yangi ijtimoiy aloqalar va aloqalarni o‘rnatadi va quradi, nizolarni hal qilishning buzg'unchi usullaridan xalos bo‘ladi, ijtimoiy jihatdan maqbul turmush tarzini olib boradi.

Demak, ijtimoiy reabilitatsiya davlat, xususiy va jamoat tashkilotlari tomonidan shaxsning ijtimoiy faoliyatini tiklash, uni jamiyatga integratsiyalashuvi va ijtimoiy

huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Oilaviy zoravonlikka uchragan ayollarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish ayollar uchun inqiroz markazlari, shuningdek, davlat va nodavlat ijtimoiy xizmat korsatuvchi boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi va ayollarga inqirozli vaziyatlardan chiqishda yordam berishga qaratilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ta'lim muassasasida zo'ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo'llanma / V. Adescalita, R. Josanu, I. Moldovanu, T. Epoyan tomonidan tahrirlangan - Kishinyov, 2017 .-- 128b.
2. Volkova E.N., Volkova I.V., Isaeva O.M. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning tarqalishini baholash // Ijtimoiy psixologiya va jamiyat. 2016. 7-jild. No 2. 19-34-betlar.
3. Aptikieva L.R., Aptikiev A.X., Bursakova M.S. Zo'ravonlikdan omon qolgan o'smirlar bilan psixologik-pedagogik ishlarni tashkil etish // Orenburg davlat universitetining axborotnomasi No 9 (170), 2014. P.4-9.
4. Malkina-Pykh IG Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam - Moskva: Eksmo nashriyoti, 2005. – 960
5. Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 11 апрелдаги Хотин-қизлар ва болалар хукуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатлариiga ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги» 829-сонли Қонуни. <https://lex.uz/docs/6430272>
6. Нарбаева Т. К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Социология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация - Тошкент, 2020. –Б.123.
7. Гордеева, А. В. Реабилитационная педагогика / А. В. Гордеева. - Москва : Парадигма : Академический Проект, 2005. – 317 с.